

# НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ



## SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI KO'RSATKICHLARINI STATISTIK KUZATISH

**Shodiboyev Xolmurod**

*Guliston davlat Universiteti talabasi*

**Abdurayevov Saidbek**

*Guliston davlat Universiteti talabasi*

**Turayeva Gulizahro**

*Guliston davlat Universiteti o'qituvchisi*

**Abstract:** Statistik kuzatish ommaviy hodisalarini, jarayonlarni sinchiklab tekshirish uchun ular haqida boshlang'ich materiallarni to'plashdir. U o'r ganilayotgan obyektlarni va ularning unsurlarini hisobga olish bilan bog'liq. Hisob – bu biror predmet miqdorini sanab yoki o'lchab aniqlash, biror kimsa yoki narsa mavjud miqdorini belgilash uchun maxsus hujjatda u haqidagi ma'lumotlarni qayd qilish. Statistik kuzatish ho'jalik va turmush voqealarining hisobiga asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** Statistik kuzatish, Statistik formulyar va yo'riqnomalar, kuzatish kritik payti, kuzatish shakllari, kuzatish turlari, kuzatish usullari, statistik formulyar, yo'riqnomalar.

### Kirish

Statistik kuzatish va uning natijasida to'planadigan ma'lumotlar uchta talabga javob berishi kerak, ya'ni: 1) aniqlik va to'g'rilik; 2) to'lalik va har taraflamalik; 3) taqqoslamalik, solishtirmalik. Aniqlik – bu ma'lumotlarni real hayotiyligi, haqiqatga to'la mos kelishi. Butun statistik kuzatish uslubi, uni tashkil etish va amalga oshirish yo'li ma'lumotlarning aniqligini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Statistika tizimi qanchalik haqqoniy va ochiq bo'lsa, islohotlar shunchalik to'g'ri va natijador bo'ladi. Shu maqsadda so'nggi uch yilda qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, inflyatsiyani hisoblash usuli xalqaro standartlarga moslashtirildi, kuzatuvdag'i tovarlar tarkibi kengaytirildi. Davlat byudjeti, tashqi qarz, oltin zaxirasi va tabiiy boyliklar haqidagi moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar ochiq e'lon qilinmoqda.

### Tahlil va natijalar

#### Sirdaryo viloyatining hududlar kesimida tashqi savdo aylanmasi

#### 1-jadval

	HUDUD NOMI	HAJM AQSH \$	O`SISH SUR'ATI % DA	ULUSH %
1	<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>137.4</b>	<b>132.2</b>	<b>100.0</b>
	1	2	3	4
1	Boyovut.T	10.3	145.6	7.5
2	Guliston.T	2.7	72.1	1.9



3	Mirzaobot.T	3.8	72.6	2.8
4	Oqoltin.T	1.5	195.3	1.1
5	Sardoba.T	0.5	20.2	0.4
6	Sayxunobod.T	9.7	125.7	7.1
7	Sirdaryo.T	38.7	120.1	27.6
8	Xovos.T	7.2	144.4	5.2

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, Sirdaryo viloyatining hududlar kesimida tashqi savdo aylanmasi 2023 yil yanvar-fevral oylari tahlili jami 134.4 \$ tashkil etmoqda.O'tgan oylarga nisbatan o'sish sur'atlari 132.2 % ni tashkil etmoqda.Shundan Sirdaryo tumani jami o'sish sur'atining 27.6 % ulushini tashkil etmoqda. Har qanday statistik tekshirish o'sha o'rganilayotgan ob'ekt haqida tegishli ma'lumotlarni to'plashdan, ya'ni statistik kuzatishdan boshlanadi, shuning uchun ham statistik kuzatish har qanday statistik tadqiqotning birinchi bosqichi deyiladi. Statistik kuzatish ma'lumotlarni bir-biri bilan uzviy bog'langan va bir butunlikda qayd qilish zarur.

## Xulosa va Takliflar

Statistik kuzatish statistik tekshirishning birinchi bosqichidir. U tasviriy statistikaning asosi, ommaviy hodisa va jarayonlarni o'rganishning eng muhim va mas'uliyatli davri hisoblanadi, chunki tekshirishning pirovard natijasi avvalom bor kuzatish jarayonida to'plangan ma'lumotlarga bog'liq. Biz tomonimizdan tashqi savdo bo'yicha ko'rsatkichlar Sirdaryo viloyati misolida tahlil qilinganda, Sirdaryo viloyatining hududlar kesimida tashqi savdo aylanmasi 2023 yil yanvar-fevral oylari tahlili jami 134.4 \$ tashkil etmoqda.O'tgan oylarga nisbatan o'sish sur'atlari 132.2 % ni tashkil etmoqda.Shundan Sirdaryo tumani jami o'sish sur'atining 27.6 % ulushini tashkil etmoqda. Bunda kuzatuv tahlili to'lalik va taqqoslamalik statistik kuzatishning asosiy ilmiy prinsiplari va qonunidir. Statistik kuzatish hisobdan, oddiy bir predmetli kuzatishdan ko'p jihatlari bilan farq qiladi. Statistik kuzatish har doim ommaviy xarakterga ega, uning obyekti bo'lib ommaviy hodisa va jarayonlar xizmat qiladi.

## Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

- Shavkat Mirziyoyev. "Milliy statistika-sohasini-takomillashtirish-chora-tadbirlari" bo'yicha. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 03.08.2020 yildagi PQ-4796-sон qarori.
- Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan. T., «O'qituvchi», 2011.Darslik.
- Б.М. Гусаров. Теория статистики. М., «Финансы и статистика», 2001.
- Gulizahro, T., Sarvinoz, B., Husniddin, M., Shahzod, S., & Muyassar, I. (2022). BOZOR AGRO IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLAR SHAROITIDA HAMKORLIK TAMOYILLARINI TAKOMILLASHTIRISH. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 804-807.

# НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ



5. Gulizahro, T., Nigora, S., Dilafruz, A., & Azamat, Z. (2022). QISHLOQ XO'JALIGIDAAGRASANOAT VA MUSTAQIL SANOAT TARMOQLARINING TUZILMASI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 203-206.
6. Qaxxorovna, T. G., & Ikrom o'g'li, X. J. (2023). QISHLOQ XO'JALIGIGA BOZOR MEXANIZMLARINI JORIY QILISH. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(2), 85-90.
7. Akbarova, N., & Azamatov, Z. (2023). Deformation measurement by digital holographic interferometry. In E3S Web of Conferences (Vol. 434, p. 01039). EDP Sciences.
8. Qaxxorovna, T. G. (2023). DON ISHLAB CHIQARUVCHI XALQARO TRENDLAR. *XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI*, 1(2), 19-23.